

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O`zbek filologiya fakulteti

O`zbek tilshunosligi kafedrası

Hozirgi o`zbek adabiy tili fanidan

Kurs ishi

Mavzu: Otlarda son kategoriyasi

Bajardi: 204-guruh talabasi Ostonoqulova Qunduz

Ilmiy rahbar: f.f.n. Sh. Mahmadiyev

Samarqand-2014

Mavzu: Otlarda son kategoriyasi

Reja:

I. Kirish. Otlarda son kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot.

II. Asosiy qism:

1. Otlarda son kategoriyasining grammatik ifodalanishi:

a) morfologik yo'l bilan;

b) sintaktik yo'l bilan.

2. Birlik va ko'plik sonda qo'llanuvchi otlar.

3. Faqat birlikda qo'llanuvchi otlar.

III. Xulosa.

Mustaqil soʻz turkumlaridan biri boʻlgan ot soʻz turkumining boshqa soʻz turkumlaridan ajratib turadigan belgilaridan biri bu kelishik, egalik va son kategoriyalarga ega ekanligidadir.

Otlarda ziddiyat holida boʻlgan birlik va koʻplik maʼnosi va bu maʼnoni ifodalovchi shakllar sistemasi grammatik son kategoriyasini tashkil etadi.

Mantiqiy va grammatik son ikki xil narsa. Masalan, jamlovchi ot ([*xalq*], [*qoʻshin*], [*poda*], [*suruv*]) mantiqan predmet jamini bildiradi, lekin grammatik jihatdan birlikda deb qaraladi¹. Masalan: *Yarim xalq yigʻlar.*(M.Yusuf. Saylanma.224-b) Sh. Shoabdurahmonov va boshqalarning «Hozirgi oʻzber adabiy tili» qoʻllanmasida grammatik son va mantiqiy son haqida qarashlari qoʻyidagicha: “Grammatik son va logik son odatda oʻzaro mos kelavermaydi. Masalan, kishi otlari yakka shaxsni (masalan, *Zulfiya*, *Karim* kabi) ifoda etadi. Lekin bu otlar bir necha shaxs nomini ham anglatishi mumkin. Shunda ham ular yakka shaxsni bildiraveradi. Turdosh ot esa, asli bittadan koʻp boʻlgan predmetning nomidir. Bundan tashqari, bir turdosh ot bilan bir predmetni, oʻrni bilan koʻp predmetni ifoda qilishi mumkin. Masalan: *Maktab tajriba uchastkasiga olma ekdik.* Bunda *olma* situatsiya va kontekstga qarab bir olma koʻchatini ham, koʻp olma koʻchatini ham ifoda qiladi. Bu uning semantik belgisiga bogʻliqdir.

Turdosh otning yakka yoki koʻp predmetni ifoda qilishi uning semantikasi va situatsiya kontekstiga bogʻliq. Lekin bu otlar, yakka yoki koʻp predmetni anglatishidan qatʼi nazar, son kategoriyasining aynan bir formasidir. Demak, otning yakka yoki koʻp predmetni anglatishi bilan son kategoriyasining qaysi formasida boʻlishi boshqa-boshqa hodisalardir: logik son bilan grammatik son teng emas”², - deb munosabat bildirilgan.

Bundan tashqari “Oʻzbek tili grammatikasi”ning 1-tomida ham mantiqiy miqdor bilan grammatik miqdorni shunday ajratib beradi: «Mantiqiy miqdor bilan grammatik miqdor oʻzaro farq qiladi. Mantiqan atoqli ot yakka predmetni atab

¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova G., Yunusova Z., Abzalova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009, 229- b.

² Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980, 217-220-б.

turadi: *Sobir, To‘ytepa* kabi. Ayni shu ism bilan bir necha predmet atalishi mumkin, ammo shunda ham ism har gal yakka, individual predmetni ataydi.

Turdosh ot esa, turning nomi sifatida, o‘z-o‘zidan, mantiqan «bittadan ortiq (ko‘p) predmetni nomlaydi. Shu bilan bir vaqtda turdosh ot yakka predmetni anglatib ham keladi. Masalan, *Ko‘chat ekdim* deganda *nutq* situatsiyasiga qarab bitta ko‘chatni ham, ko‘p ko‘chatni ham tushunish mumkin. Ko‘rinadiki, atoqli otning yakka predmetni atashi leksemaning semantik xususiyatiga bogliq; turdosh otning yakka yoki ko‘p predmetni anglatishi esa, leksemaning semantik xususiyatidan tashqari, *nutq* situatsiyasiga, kontekstga bog‘liq.

Otlarni yakka predmetni anglatishiga qarab grammatik birlikda, ko‘p predmetni anglatishiga qarab grammatik ko‘plikda deb yuritish mumkin emas. Yuqoridagi misollar (*Sobir, ko‘chat*) mantiqan yakka yoki ko‘p predmetni anglatishidan qat’i nazar, son kategoriyasining ayni bir formasida.

Shunday otlar ham borki, o‘z semantik xususiyatiga ko‘ra doim bittadan ortiq predmetni anglatadi: *armiya, qo‘shin, polk* kabi. Ammo son kategoriyasi nuqtayi nazaridan *ko‘chat* qaysi formada bo‘lsa, *armiya* ham shu formada,»- deydi.³

Bahorda dehqonning yumushi ko‘payadi. Yerga omoch soladi. Ko‘chat qadaydi, nihol o‘tqizadi. (O‘.Hoshimov, 163-b.)

Kecha kolxozda ketmon chopib, biri ikki bo‘lmagan dehqon bugun er olib, bola-chaqasi bilan gullatib qo‘ysa-yu, qaddini kerib yursa, quvonaman. (O‘. Hoshimov, 136-b.)

Otlarda son kategoriyasining grammatik ifodalanishi ikki xil usul bilan ifodalanadi:

- a) morfologik usul;
- b) leksik-sintaktik usul.

Morfologik usulda ko‘plik ma’nosi asosga *-lar* affiksini qo‘shish bilan ifodalanadi: *daryolar, ko‘llar, uylar, gullar, sahrolar* kabi.

³ Ўзбек тили грамматикаси. I том. - Тошкент: Фан, 1975, 125-б.

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullaevlarning «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» darsligida **-lar** affiksi qo‘yidagi ma’nolarni ifodalashi aytib o‘tilgan:

1. Shaxs va predmetlarning ko‘pligini, aniq bo‘lmagan ko‘p miqdorini bildiradi: *Turmush sinovlariga biz **kattalar** dosh bera olmasak, bolada nima gunoh. (O’. Hoshimov, 34-b.) Ota –bobolarimiz* bundan yuz ming yil avval bir-birini toshbolta bilan o‘ldirgan. (O’. Hoshimov, 23-b.)

2. Egalik affiksidan (ba’zan egalik affiksi bo‘lmaydi) keyin qo‘shilib keladi va hurmat ma’nosini ifodalaydi: ... **oyinglar** kelganda, albatta, kiraman. (O’ Hoshimov, 46-b.)

3. Payt bildiruvchi ravishlarga, payt, o‘rin yoki narsa sonini bildiruvchi birikmalarga qo‘shilib, chama, taxmin ma’nolarini ifodalashga xizmat qiladi: **Oltmishinchi** yillar latifasi (O’. Hoshimov, 11-b.)

4. **-lar** affiksi uyushiq bo‘laklarning har biriga qo‘shilganda, ko‘plik, ta’kid, hurmat ma’nolari ifodalanadi, uyushiq bo‘laklarning faqat oxirgisiga qo‘shilib kelsa, umumlashtirish, jamlik ma’nolari anglashiladi:

Tanishdilar...

Sevishdilar...

Turmush qurdilar...

Farzand ko‘rdilar...(O’. Hoshimov, 21-b.)

Ko‘plik ma’nosi leksik-sintaktik usul bilan qo‘yidagicha ifodalanadi:

1) Sanoq sonlar, gumon olmoshlari va miqdor ravishi otni aniqlab keladi: *uchta kitob, bir nechta bola, ko‘p bola, juda ko‘p daftar, har xil kitob. U bilan hayotini bog‘lagan odam **ko‘p** narsaga erishishi mumkin. (U.) **Mingta** qal’angdan o‘zimning dalam yaxshi oxun. (Bu birikmalardan ba’zilari -lar affiksini qabul qila oladi; ko‘p odamlar, bir qancha bolalar kabi. Bunda ko‘plik ikki marta: ham leksik-sintaktik usul bilan, ham morfologik usul bilan ifodalanadi.*⁴

⁴ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992, 257-б.

Otga sifatlovchi bo‘lib kelgan ot, sifat, son takrorlanadi: *dasta-dasta gul, to‘da-to‘da odam, baland-baland torlar. Har rastada ming-ming do‘kon.* (Furqat.)

Issiq-issiq yurtlar izlab,

Ketayotir turnalar. (M. Yusuf, Saylanma,161-b)

Misollardan ko‘rinadiki, sifat takrorlanganda, aniqlanmish ot *-lar* affiksi bilan ishlatiladi. Demak, bunday ifodalanishda leksik-sintaktik usul ham, morfologik usul ham qatnashadi.

Juft so‘zlar orqali ham ko‘plik - umumlashtirish ma’nolari ifodalanadi: *el-yurt, kecha-kunduz, og’a-ini, dala-dasht* kabi.

Sizda orom qayda, sizda tin qayda,

Siz to‘yib uxlaganbitta tun qayda.

El-yurt oromini asragan zotlar,

El mehri asrasin sizni har joyda. (M. Yusuf, Saylanma,142-b)

Ey Muhammad, olti og’a-ining bor,

Birda yaxshi, birda yomon kuning bor. (M. Yusuf, Saylanma,156-b)

[-lar] shaklining ko‘plikni ifodalashi masalasida barcha tilshunoslar hamfikir. Ammo, nol ko‘rsatkichli shakl masalasida har xil qarash bor.

Ko‘p holda nol shakl faqat birlik ma’nosining ifodalovchisi sifatida qaraladi. Ba’zilar esa u na ko‘plik, na birlik ifodalashini ta’kidlab, bu shaklning son kategoriyasi tarkibidagi o‘rniga shubha bilan qaraydi. Zero, nol shakl miqdoriy grammatik ma’no anglatishdan mahrum ekan, unda [-lar] shakli bilan aynan bir xil qurshovda o‘rin almashishini qanday tushunish kerak? Unda *Askar o‘rab oldi o‘ngdan-u so‘ldan* (Mirt.) gapida mantiqan (*askarlar*) so‘zshakli ishlatilgan bo‘lur edi.

[-lar] va nol shakl – hozirgi o‘zbek tilida miqdor anglatuvchi grammatik ko‘rsatkich. Bu ular sof miqdor anglatadi, degani emas, albatta. Miqdor belgisi bu

shakllarda kategorial ma'no bo'lsa, unda sifatiy yondoshuv va boshqa hamroh ma'no ham mavjud.⁵

O'zbek tilida otning birligini ko'rsatuvchi maxsus affiks yo'q. So'zning predmet tushunchasini ifoda qiluvchi affikssiz holatining o'zi, ya'ni nol ko'rsatkichdagi formasi birlikdir. Lekin ba'zi otlar birlik formada bo'lib, ayrim predmetlarning to'dasini anglatadi: *xalq, armiya, olomon, to'da*. Bu ko'plikning semantik usul bilan ifodalanishi deb yuritiladi.

Otlarning ko'plik formasi bir jinsdagi yoki undan ortiq bo'lgan noaniq miqdordagi predmetlarni ifoda qiladi. Bu forma -lar affiksi orqali hosil bo'ladi. Ko'plikning bunday ifodalanishi morfologik usul bilan ifodalanish deb ataladi: *kitob* (birlik) - *kitoblar* (ko'plik).

O'zbek tilida otning son formasi (birlik va ko'plik formasi) sintaktik munosabat ko'rsatmaydi.⁶

Z. Maxatovanning "So'zlar tarkibida -lar qo'shimchasining o'rinlashishi" maqolasidagi ba'zi fikrlarga e'tiborimizni qaratamiz. O'zbek tilida so'z tarkibidagi morfemalarning joylashishi ma'lum qoidalar, ya'ni modellarga ega. Leksik ma'no bilan bo'g'liq qo'shimchalar oldin, grammatik ma'no hosil qiluvchi shakl yasovchilar so'ng, sintaktik munosabat vujudga keltiruvchi qo'shimchar so'z oxirida joylashadi. *Bo'yoqchi -lar* qo'shimchasi semantik jihatdan xilma-xil xususiyatlarga ega bo'lishidan tashqari, grammatik jihatdan ikki xildir. Odatda, fe'lga qo'shilganda sintaktik vazifa bajarsa, otlarga qo'shilganda kelishik va egalik shakllaridan keyin kelib, grammatik miqdor ma'nosini ifodalovchi shakillarni hosil qiladi.

Ot turkumiga oid so'zlarda -lar qo'shimchasining qat'i o'rni bor. U egalik va kelishiklardan oldin o'rnashadi. Bu o'zgarish miqdorning emas, uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. *Shahardan opalarim kelib qolishi mumkin.*(grammatik miqdor.) *Yetaklashib opamlarning hovlilaridan o'tib bordik.*(hurmat)

⁵ Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009, 230- b.

⁶ Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили.-Тошкент, 1980, 218-б.

-lar fe'llarga qo'shib sintaktik vazifa hosil qilishda ularning semantikasida grammatik miqdor semasi anglashilib turadi.(hurmat ma'nosi bundan mustasno)
*Sizlar mushkul operatsiyani bajarib qo'mondonlik ishonchini oqladinglar.(A.Ubaydullaev)*⁷

Ushbu kategoriya GM (grammatik ma'no) si va GSh (grammatik shakl) lari va ularning o'zaro munosabatlari masalasi borasida tilshunoslar turli-tuman qarashlarni bayon etadi.

Birlik va ko'plikda qo'llanuvchi otlar. Quyida [-lar] shaklining otdagi grammatik ma'nolarini (OGM) sanaymiz.

«Ko'plik» [-lar] shakli eng ko'p ifodalaydigan ma'no. Bunda [-lar] UGMsining kategorial ma'nosi «ko'plik» bo'lsa, unga dialektik yondosh bo'lgan ma'no – «miqdoriy noaniqlik» va «sifatiy bo'linuvchanlik». Ya'ni grammatik ma'no «bo'linuvchan noaniq **ko'plik**». Demak, «ko'plik» ma'nosi ifodalanganda, albatta, o'z-o'zidan «noaniqlik» va «bo'linuvchanlik» ma'nosi yuzaga chiqishi shart. Bunga misol:

Tepamda mo'ltirar oy sohibjamol,

Yulduzlar boshimga yog'ilgan savol. (M.Yusuf, Saylanma,129-b)

Yulduznin ko'pligi ayon. Ammo uning nechtaligi noaniq va bu ko'plik bo'linuvchan (yulduz+yulduz+yulduz...).

«Jamlik» ma'nosi ba'zan sezilar-sezilmas, ya'ni bo'linuvchanlik xususiyatini saqlagan holda (a) yuzaga chiqsa, ayrim holda, xususan, turg'unlashib qolgan izofada (b) yaqqol yuzaga chiqadi: a) *kishilar orzusi, qushlar bayrami*; b) *ishchilar sinfi, o'qituvchilar ro'znomasi, kitoblar uyi*.

[-lar]ning miqdoriy va sifatiy belgisi ayrim holda unga makon va zamon o'lchovida taxminiylikni ifodalashi mumkin: Masalan, *Men Muhammadjon bilan uzoq yillar mobaynida yonma-yon ishladim, yonma-yon yashadim.*(M.Yusuf. Saylanma, 275-b.)

⁷ Махатова З. Сўзлар таркибида -лар қўшимчасининг ўринлашиши\\\"Ўзбек тили ва адабиёти\" журнаги, №1.,2006,79-б.

[-lar] ning kuchaytirilgan ma'no ifodalashi: *Jonlarimga tegib ketding*. Bunday kuchaytirish [-lar]ning «ko'plik» ma'nosiga bog'liq. Chunki ko'p narsa mantiqan kuchli bo'ladi. Uni kuchli qilib ko'rsatish uchun ko'plik shakli berilmoqda.

"O'zbek tili grammatikasi"ning 1- tomida otlardagi sonning ko'plik va birlik shakliga alohida to'xtalgan. Masalan: *-lar* affiksi ko'plik formasi deb ataladi; shunga ko'ra shakl va ma'noda unga zid qo'yiladigan" affikssiz holat birlik formasi deb yuritiladi. Masalan, *daraxt* - birlikdagi ot, *daraxtlar* -ko'plikdagi ot deyiladi. Bunday nomlash grammatik (formal) yondashishni aks ettiradi, albatta. Mantiqan esa *daraxtlar* emas *daraxt* ko'p. Chunki *daraxt*, yakka predmetni anglatishidan tashqari, shunday nomlanuvchi predmetlarning barchasini (turni yalpisiga) ham bildiradi, bunda miqdor chegaralanmagan bo'ladi. *Daraxtlar* so'zida esa *-lar* affiksi miqdorni chegaralaydi. *Daraxtlar* deganda shu turdagi predmetlarning barchasini tushunib bo'lmaydi, faqat ko'z oldiga keltirish mumkin bo'lgan qandaydir to'dalari, xillari qamrab olinadi. Shu jihatdan yondashsak, turdosh otda predmetning ko'pligini leksemaning o'zi bildiradi, *-lar* esa «chegaralanganlik» ma'nosini va unga zid qo'yiladigan Ø I formasi «chegaralanmaganlik» ma'nosini ifodalaydi.⁸ Haqiqatda, o'zbek tilida yakkani ifodalovchi maxsus forma yo'q, turdosh ot leksema ma'lum kontekstdagina yakka predmetni bildiradi, o'zicha esa son jihatdan noaniq bo'ladi. Asli *bola* kabi formaga birinchi galda «umuman» ma'nosi xos, «bitta» ma'nosi esa *-lar* affiksining «bir necha» ma'nosiga zidlanishda yuzaga keladi. Demak, *bola* kabi so'z asli grammatik son jihatidan neytral. Ana shunday neytrallik sababli bu formadagi ot oldidan bittani va bittadan ortiqni ifodalaydigan sifatlovchi keltiraverish mumkin: *bitta bola - bir necha bola, ancha bola* kabi. Ko'rinadiki, ma'no taraqqiyoti qo'yidagicha borgan: umuman bola — bitta bola yoki bir necha bola. Keyingi *bolalar* ko'plik formasi asosida *bola* birlik formasi yuzaga kelgan. Aytilganlarni sxemada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

⁸ Ўзбек тили грамматикаси. - Т., 1975, 144-162-б.

Soʻzning negizi	Son formasining koʻrsatkichi	Formaning mohiyati	Formaning maʼnosi
<i>bola-</i>	ø I	birlik	„xususan“ --> , bitta
↕			↕
<i>bola-</i>	—	betaraf	„umuman“
↕			
<i>Bola</i>	-lar	koʻplik	bittadan ortiq

Oʻzbek tiliga nisbatan «faqat birlikda ishlatiluvchi otlar» «faqat koʻplikda ishlatiluvchi otlar» haqida emas, balki *-lar* affiksini oluvchi otlar va *-lar* olmaydigan otlar haqida, bularning oʻz ichki maʼno guruhlanishi haqida gapirish maqul. *-lar* olmaslik turlicha sabablarga koʻra voqe boʻladi.

Asli *-lar* affiksi asosida paydo boʻlgan, ammo son kategoriyasi doirasida emas, balki egalik kategoriyasi doirasida shakllangan maxsus hurmat formasi mavjud, bu formani aytib oʻtilgan ikki grammatik kategoriyadan ajratib olib, alohida, mustaqil forma sifatida talqin qilish lozim.

Bundan tanshari, *-lar* affiksining boshqa barcha funksiyalarini son kategoriyasi doirasida izohlash ham oʻrinli emas. Son kategoriyasida beriladigan talqinlar orasidan *-lar* affiksining egalik va tuslovchi tarkibida qatnashuvini chiqarib tashlash lozim: bular son kategoriyasining formasi emas, balki *-lar* koʻrsatkichining boshqa grammatik kategoriyalarning formalari tarkibida qatnashuvidir. Shunga koʻra *-lar* affiksining egalik va tuslovchilar tarkibidagi oʻrni, maʼno va funksiyasini oʻsha kategoriyalarning oʻzida bayon qilish kerak.

Oʻzbek tilining grammatikasida atoqli, turdosh, kishi, jam va narsa otlarida **lar** oluvchi va olmasligiga koʻra quyidagicha ajratadi:

Atoqli otlar orasida *-lar* oluvchilar ham, *-lar* olmaydiganlar ham mavjud. Koʻpchilikni *-lar* oluvchilar tashkil qiladi.

-lar olmaydigan atoqli otlarga *Quyosh, Yer, Oy* kabi planeta ismlarini misol qilib koʻrsatish mumkin. Bular odatda turli maʼnoda ishlatiladi. Koʻchma maʼnoda

ishlatilsa, atoqli otlardan chiqadi, turdosh otga yoki boshqa biror turkum soʻziga aylanadi. Masalan, *Ey quyosh, koʻrsat yuzing* kabi murojaatda *quyosh* koʻchma maʼnoda («goʻzal ayol», «pariruxsor qiz») turdosh ot hukmida kelgan. Ana shunday vaziyatdagi *quyosh* soʻzi *quyoshlar* kabi formada ham kela oladi.

Atoqli otning *-lar* olmasligi sintaktik sababga koʻra ham voqe boʻladi. Masalan, izohlovchi-izohlanmish konstruksiyasining birinchi komponenti boʻlib kelgan atatqli ot doim birlik formasida boʻladi: *Domimizda Qurbonoy degan farrosh xotin bor. Bu yerda farrosh izohlovchi va xotin izohlanmish.*(Oʻ. Hoshimov)

Geografik atoqli ot geografik turdosh ot bilan birgalikda ishlatilsa, turdosh ot ham, atoqli ot ham *-lar* olmaydi: *Toshkent-Qoʻqon yoʻliga oʻxshaydi bir qarasam.* (Oʻ. Hoshimov)

Turdosh va jam otlarda son. Turdosh otlarda son ularning maʼno turlariga koʻra turlicha. Jam otlari deb bu yerda juft turdosh otlar tushuniladi. Bunday otlar oʻz semantikasiga koʻra jamlikni bildiradi. Masalan, *kuch-qudrat* oti «shu ikki negizdan anglashiladigan va yana shunga yaqin, oʻxshash boshqa predmetlar» degan maʼnoni ifodalaydi. Goʻyo bu erda «kuchdan boshlab qudratgacha» yoki «kuch, qudrat va shuning kabilar» formulasi bilan ish koʻriladi.

Jam otlari oʻz negiziga koʻra koʻplikni ifodalaydi, shu sababli *-lar* affiksini olmaydi deb ham izohlanadi. *Kuch-qudrat* kabi soʻz anglatadigan koʻplik grammatik koʻplik emas, demak, bu erda koʻplikning sintaktik ifodalanishi haqida gapirish nooʻrin. Asli bunday soʻzda koʻplik emas, jam maʼnosi bildiriladi, bu maʼno leksik yoʻl bilan (soʻz tuzish yoʻli bilan) ifodalanadi.

Jam otlari oʻz semantik tabiatiga koʻra predmetni noyakka ifodalaydi, bunday ot anglatgan predmet donalab sanalmaydi. Bu ikki nuqtayi nazardan jam otlari bir xil, ammo quyidagi nuqtayi nazardan har xil: kishi yoki narsa oti, konkret yoki abstrakt ot ham boʻlishi mumkin.

Son kategoriyasining formalarida ishlatilishi jihatidan jam otlarini avvalo ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Son kategoriyasining birlik formasida ishlatiladigan otlar. Bular o'z navbatida ikki xil:

1) Birlik formasida ishlatiladigan otlar. Bunday jam otlari oz bo'lib, nega ko'plik formasida kelmasligini izohlash qiyin. Misollarni kuzatish bunday otlarning narsani anglatuvchi abstrakt otlarga to'g'ri kelishini ko'rsatadi: *mehr-muhabbat, savlat-salobat(i)* kabi:

Qalandarov nazarida savlat-salobati, obro'yi asta-sekin nurayotgandi. (A. Qahhor). *Urushda qanchalik kuch-qudrati talab qilinsa, bu erda ham undan kam talab qilinmaydi* (J. Abdullaxonov).

Bu gaplardagi jam otlari *savlat-salobatlar, kuch-qudratlar* shaklida ishlatilmaydi. *Kuch-qudratlari, savlat-salobatlari* kabi ishlatishda jam oti birlik formada qolaveradi, chunki bu erdagi *-lari* III shaxs egalikning sizlash formasiga teng.

Yaxlitligicha ravishga aylangan *jon-jahd(i) bilan, vaqti-soati bilan* kabi ko'makchili konstruksiya tarkibidagi jam oti ham faqat birlik formasida ishlatiladi: *U shu sahrodan o'ch olmoqqa jon-jahdi bilan kirishdi* (J. Abdullaxonov)..., *vaqt i-s o a t i bilan javob topamiz* (A. Q a h h o r).

Birinchi jam otini *jon-jahdlari bilan* shaklida, ya'ni III shaxs egalikning sizlash formasini qo'shib ishlatish mumkin, ammo jam oti son kategoriyasining birlik formasida qolaveradi. Ikkinchi misolda bunday ishlatish imkoniyati ham yo'q, chunki u kishilarga emas (birinchi misolda kishilarga edi), balki narsalarga qaratilgan, shu sababli sizlash formasi ham ishlatilmaydi.

Bunday jam otlarining komponentlari mustaqil so'z sifatida ham *-lar* olmaydigan turdosh ot bo'lib chiqadi. Demak, bunday jam otlarida *-lar* olmaslik juft so'z komponentlariga aslida xos; bu otlar juftlashgach paydo bo'lgan xususiyat emas. Ko'rinadiki, juftlik *-lar* affiksining qo'shilishini odatda inkor qilmaydi.

2) Jam oti boshlang'ich, yolg'iz holatida ham *-lar* olib shakllanadi. Masalan, *yigit-qiz, qiz-juvon* kabi birlik formasida juftlash g'aliz tuyuladi, bunday otlarni *yigit-qizlar, qiz-juvonlar* shaklida tuzish normal hisoblanadi. Bu so'zlar

alohida-alohida olinsa, birlik va ko‘plik formasida ishlatilaveradi, shular asosida tuzilgan jam oti esa doim ko‘plikda keladi: *Bir kuni kampirni hamrohlari-bemor qiz-juvonlar o‘rtaga olishdi.* (O‘.Hoshimov.56-b.)

Demak, bu erda *-lar* olishning majburiyligi jam oti tufayli voqe bo‘ladi, jam otining o‘z tabiatidan kelib chiqadi, *-lar* affiksisiz jam oti shakllanmaydi, *-lar* go‘yo leksemaning tarkibiga kiradi.

Bundan tashqari, jam otlariga *-lar* qo‘shib ishlatish zaruriyati sintaktik-semantik talab bilan ham yuz beradi. Masalan, komitet bitta ota-onadan tuzilmaydi, majlis bitta ota-ona uchun chaqirilmaydi, shu sababli quyidagi kabi birikmalarda *ota-ona* jam oti *-lar* olib keladi: *ota-onalar majlisi*.

Bunday hodisa jam otlarigagina emas, balki boshqa otlarga ham xos, albatta. Masalan, *qizlar klubi*, *bolalar bog‘chasi* kabi birikmalarda birinchi otni *-lar* affiksisiz ishlatib bo‘lmaydi, ikkinchi komponentning semantikasi bunga yo‘l qo‘ymaydi. qiyos qiling: *ishchi oilasi* deyish mumkin, chunki oila yakka ishchiga mansub bo‘ladi, ammo *ishchilar shaharchasi* deyish shart, chunki shaharchada juda ko‘p ishchi yashaydi (bitta ishchi yashagan joy shaharcha bo‘lmaydi).

2. Son kategoriyasining har ikki formasida ishlatiladi. Bular ko‘p: *Hozirgina Mohidil yoygan dasturxonga qand-qurs olib qo‘ydi* (J. Abdullaxonov)... *tug‘ruqxonaning kam-ketigini top‘g‘riladi* (A. Qahhor). Ko‘rpa-tushaklarini *orqalab yo‘lga tushdilar* (J.Abdullaxonov). Bu **fikr-mulohazalar** sizga ham *ma‘qul tushadi* (A. Qahhor).

Birinchi, ikkinchi gapdagi jam otlarini *qand-qurslar*, *kam-ketiglarini* shaklida (*-lar* affiksini qo‘shib), uchinchi, to‘rtinchi gapdagi jam otlarini *ko‘rpa-tushagini*, *fikr-mulohaza* shaklida (*-lar* affiksini tashlab) ishlatish mumkin.

Jam otlariga qo‘shiluvchi *-lar* affiksi o‘zi qo‘shilayotgan negizning semantik xususiyatiga bogliq holda ikki xil ma‘noni ifodalaydi:

1) Jam otidan anglashiladigan ma‘no komponentlari ma‘nosining yig‘indisi sifatida gavdalansa, *-lar* affiksi sof ko‘plik («bir necha», «bir qancha») ma‘nosini ifodalaydi. Bunday jam otlari oz: *ota-ona*, *oshiq-ma‘shuq* kabi: *Yigirma yoshdagi*

oshiq-ma'shuqlikdan yetmish yoshdagi mehr-oqibatgacha yetib borgan er-xotinlar sabr-qanoat farishtalaridir. (O'. Hoshimov, 125-b.)

Demak, bunday jam oti kishini anglatadi, har bir komponent yakka shaxsni bildiradi.

2) Jam otidan anglashiladigan ma'no komponentlari ma'nosining yig'indisidan keng bo'lsa, *-lar* affiksi sof ko'plikni emas, balki boshqacha ma'noni ifodalaydi. Jam otlarining ko'pida shunday. Bularda ikki xil ma'no mavjud:

a) ko'plik ma'nosi «har xil»lik ottenkasi bilan ifodalanadi: «*Hammasi bo'ladi, - dedi u o'zicha, - bog'lar ham, gullar ham, to'y-u tomoshalar ham* (J.Abdullaxonov). Bu erda *oshna-og'aynilar* - «ko'p va har xil» oshna-og'ayni, *to'y-u tomoshalar* - «ko'p va har xil» to'y-tomosh;

b) agar jam oti organizmdagi biror a'zoni bildirsa (shu tufayli o'rin ifodalay olsa), *-lar* affiksi «qo'rshov» ma'nosini beradi: *Chang kelib yuz-ko'zlarga o'rildi* (J.Abdullaxonov). *Nihoyatda dim, g'ir etgan shabada yurmaganidan yuz-b o'yi n l a r n i ter yuvib tushardi* (J.Abdullaxonov). Bu erda «*yuz-ko'zlar* - «yuz, ko'z va shuning atrofidagi boshqa a'zolar», *yuz-bo'yinlar* - «yuz, bo'yin va shuning atrofidagi boshqa a'zolar».

Kishi otlarida son.Otlarni kishi otlari va narsa otlari deb guruhlash keng tasnif nuqtasi bo'lib, atoqli otlarni ham, turdosh otlarni ham qamrab oladi. Son jihatidan atoqli otlarda alohida xususiyat borligi sababli kishi atoqli otlari ham o'sha erda tasvirlandi. Jam kishi otlaridan tashqari dona kishi otlari haqida fikr yuritamiz. Dona kishi otlari abstrakt ham, konkret ham bo'ladi; predmetni yakka, ba'zan noyakka anglatadi; ko'pincha sanaladigan predmetni bildiradi. Dona kishi otlarining ko'pi konkret yakka sanaluvchi ma'no turiga to'g'ri keladi: *ota, kelin, singil, yigit, qiz, ekskavatorchi, rais, direktor, kassir* kabi.

Dona kishi otlari orasida *-lar* olmaydiganlar ozchilikni tashkil qiladi. Bular:

1) Abstrakt sanalmaydigan predmet otlari turida uchraydi: *...xaloyiq gur-gur kulganda esa qizarib...* (A.Qahhor). Xuddi shuningdek, inson, odam, kishi

soʻzlari ham abstrakt maʼnoda kelsa, -lar olmaydi: Odamzodning tabiati qiziq: (Oʻ. Hoshimov.173-b.)

2) Dona kishi oti ekstralingvistik sababga koʻra -lar olmaydi; Masalan, *dada* soʻzining faqat yakka shaxsga nisbatan ishlatilishi doim -lar olmasligi obektiv voqelik bilan belgilanadi: *Dadajon koʻp oʻylaydilar-da, oʻgʻlim.* (Oʻ. Hoshimov. 35-b.) Qiyos qiling: *ota, ona* soʻzlari tuqqan kishisini anglatib kelsa, -lar olmaydi, ammo umumlashtirilsa, -lar olishi mumkin: *nuroniylar otalarimiz, mehribon onalarimiz* kabi (Bunda egalik affiksining ham koʻplik formasi qoʻshiladi).

-lar olmaslik yuqoridagi holatlarda asosan semantik sababga koʻra voqe boʻladi. Bundan tashqari, sintaktik sababga koʻra ham -lar tushib boʻlmaydigan hollar mavjud. Bunday otlar asli -lar oladi, faqat maʼlum sintaktik sharoitda -lar olmaydi. Boʻlar quyidagicha:

1) Son bilan ifodalangan sifatlovchisi boʻlsa: *yigirma beshta talaba, sakkiz-toʻqqiz kishi* kabi:

Ikki koʻzi samoda,

Hayron boʻldi muhabbat. (M.Yusuf.Saylanma.249-b.)

2) *har bir, birdan-bir, har qanaqa, uncha-muncha* kabi soʻzlar bilan ifodalangan sifatlovchisi boʻlsa (Bunday sifatlovchidan ham miqdor tushunchasi anglashilib turadi): *har bir kishi, birdan-bir odam, har qanaqa kishini, uncha-muncha odamga* kabi.

3) Sifatlovchi bilan birga *bir* gumon soʻzi ham kelsa, sifatlanmish -lar olmaydi: *U bir bagʻri daryo,*

Bir bagʻri toshdir,

U bir quyosh

Ammo- Qora quyoshdir. (M.Yusuf.Saylanma.224-b.)

Kishi otlarida -lar affiksi odatda bir maʼnoni - sof koʻplik maʼnosini ifodalaydi. Bunday maʼno -lar affiksi abstrakt otlarga qoʻshilganida ham, konkret otlarga qoʻshilganida ham ifodalanadi: *musobaqadoshlar* - «bittadan ortiq

musobaqadosh», *g'alabalar* - «birdan ortiq *g'alaba*» kabi: ...*so'zini musobaqadosh larga rahmat bilan boshlab...* (A. Qahhor). *Inqilob g'alabalarini himoya qilish kerakmidi?* (O'. Hoshimov.167-b.)

Boshlang'ich, yolg'iz holatida *-lar* bilan shakllanishi majburiy otlar kishi otlari orasida yuz (Jam kishi otlari bundan mustasno, albatta), *-lar* bilan ishlatilish majburiyati (*-lar* affiksini tashlab bo'lmaydigan holat) ma'lum sintaktik-semantik sabablarga ko'ra voqe bo'ladi. Bular quyidagilar:

1) Qaralmishi *bir, hamma* kabi so'zlar bilan ifodalangan birikmada qaratuvchi *-lar* olib keladi: *sizlarning biri (sizlardan biri), xotinlarning bir qismi, so'zga chiqqanlarning barchasi* kabi: *Osmonning oxiri turkman qizlarining yenglarida. Qiziq, o'zi umrimda bironta turkman qizi bilan ko'rishmaganman.* (M.Yusuf.Saylanma.106-b.)

2) Qaralmishi *ichida, orasida* kabi o'rin oti (ko'makchi ot) bilan ifodalangan birikmada qaratuvchi *-lar* olib keladi: *Sepoyachilar ichida dam ko'rinmay...* (J. Abdullaxonov),

1) Sifatlovchisi *hamma, bir qancha, qanchadan-qancha, ayrim* kabi so'zlar bilan ifodalangan birikmada sifatlanmish *-lar* olib keladi: ... *hamma so'zlar...* (A. Qahhor), *bir qancha erkaklar* (A. Qahhor), *Bir yigitlar tug'ilsink, bir yigitlar.* (M.Yusuf.Saylanma.134-b)

2) Sifatlovchisi takroriy so'z yoki juft so'z bilan ifodalangan birikmada sifatlanmish *-lar* olib keladi: *devday-devday yigitlar, katta-kichik bolalar, qari-qari chollar* kabi:

Shu yerlik bir qizga yoqay deb,

Uzun-uzun she'rlar yodladim. (M.Yusuf.Saylanma.37-b.)

3) Kesimining (yoki qaralmishining) semantikasi unga bog'langan eganing (yoki qaratuvchining) *-lar* olishini talab qiladi: *Odamlar tarqala boshladi* (A. Qahhor) - *odamlarning tarqala boshlashi* kabi. Tarqalish predmetning bittadan ortiq bo'lishini taqozo qiladi. *Qo'llari quyoshni to'sib qo'yadi.* (M.Yusuf.Saylanma,106-b.)

Narsa otlarida son. Otlarning semantik turlari orasida ko‘pchilikni xuddi shu turga mansub otlar tashkil qiladi.

Dona narsa otlari abstrakt ham, konkret ham bo‘ladi, predmetni noyakka ham, yakka ham anglatadi, sanalmaydigan predmetni ham, sanaladigan predmetni ham bildiradi. *Tog‘larning boshi yerning ko‘ksida.* (M.Yusuf.Saylanma.101-b)

Abstrakt otlarning *-lar* olmaydigan turi asosan sanalmaydigan predmetlarning oti bo‘ladi. Sanaladigan predmetlarning otlaridan *-lar* olmaydiganlarga *olam, dunyo, hukm* kabilarni ko‘rsatish mumkin: *Dunyoda hech kimda yo‘q bunday ovoz.* (M.Yusuf.Saylanma.56-b.)

Dona narsa otlarining *-lar* olmaydiganlari predmetni yakka anglatadi; predmetni noyakka anglatatilib *-lar* olmaydigan otga *ko‘pchilik, sostavdan tashqari tumonat* kabilarni misol qilib keltirish mumkin: *Maqbarada tumonat odam.* (M.Yusuf.Saylanma.113-b.)

Bu tur otlar orasida *-lar* olmaydiganlari ko‘pincha sanalmaydigan predmetni anglatadi. Bularni semantik to‘dalarga birlashtirish, biror tashqi belgisi asosida izohlash qiyin, shu sababli alfavit tartibida sanash bilan kifoyalanamiz: *alfoz, aql, dil, diqqat, zulmat, iloj, ijro, ishonch, kayfiyat, ko‘mak, mazmun, muhabbat, navbat, nazar va boshqalar.*

Polisemantik leksemada uning bir leksik ma‘nosi *-lar* qo‘shishga yo‘l qo‘ymasligi, boshqa bir leksik «ma‘nosi esa yo‘l qo‘yishi mumkin. Masalan, *bo‘y* leksemasi «chet», «yoqa» ma‘nosida *-lar* oladi (*anhor bo‘yida - anhor bo‘ylarida* kabi), ammo «davom» ma‘nosida *-lar* olmaydi: *umr bo‘yi.*

Shuningdek, *xil* leksemasi «tur» ma‘nosida *-lar* oladi (*Gulning xili ko‘p - Gulning xillari ko‘p* kabi), «taxlit», «yo‘sin» ma‘nosida esa *-lar* olmaydi:

Omonimlar ham boshqa-boshqa leksema sifatida, so‘zsiz, har xil sonlanishi mumkin. Masalan, *martaba* «ijtimoiy mavqe, lavozim» ma‘noli leksema sifatida ham, «daf‘a» ma‘noli leksema sifatida ham *-lar* olmaydi. Ammo «olam» ma‘nosili *dunyo* leksemasi *-lar* olmaydi-yu, «boylik» ma‘nosili *dunyo* leksemasi *-lar* oladi.

-lar olmaydigan otlarning alohida bir gruppasini ot ko‘makchilar tashkil qiladi: *haq[i]da, to‘g‘ri[si]da, qoshida, davomida, yuzasidan* kabi:

Bir qiz yig‘lar buloq boshida,

*Ma‘yus majnuntollar **qoshida.*** (M.Yusuf.Saylanma. 29-b.)

Dona narsa otlariga -lar quyidagicha sintaktik sabablarga ko‘ra ham qo‘shilmaydi:

1) Son bilan ifodalangan sifatlovchi bo‘lsa: *yana bir latifa, bir tarsaki eganday, shu ikki so‘zni, ikkala qo‘li bilan, bir-ikki savol, uch kun, to‘qqiz kun deganda, o‘n yil burun* kabi.

2) *Birmuncha, biron, biror, birorta, birdan-bir, har bir, har qanday* kabi so‘z bilan ifodalangan sifatlovchisi bo‘lsa (Bunday sifatlovchidan ham miqdor tushunchasi anglashilib turadi): *bundan birmuncha vaqt burun, biron fikrni, biror chora, birorta o‘rin, birdan-bir niyatim, har bir yaproqni, har qanday sharoitda* kabi.

3) Qaratuvchisi *har bir* kabi so‘z bilan ifodalangan birikmada qaralmish -lar olmaydi: *har birining ko‘kragiga tizzamizni tirab...* (A. Qahhor).

4) Atoqli ot+turdosh ot konstruksiyasida har ikki so‘z -lar olmaydi: *Shukur Burhon qabriga rayhonni qo‘ydim.* (M.Yusuf.Saylanma.119-b.)

5) Numerativ bo‘lib kelgan ot ham odatda -lar olmaydi: *bir bo‘lak nonni, yarim gaz cho‘kkanday bo‘ldi, bir piyo l a musallas* kabi va boshqalar.

Boshlang‘ich, yolg‘iz holatida **-lar** affiksi bilan ishlatilishi majburiy otlar narsa otlari orasida **-lar** olib ishlatilish majburiyati (**-lar** affiksini tashlab bo‘lmaydigan holat) ma‘lum sintaktik-semantik sabablarga ko‘ra voqe bo‘ladi. Bular asosan quyidagilar:

Dona narsa otlarida -lar affiksi turlicha ma’nolarni ifodalaydi:

Son nuqtayi nazaridan o‘rin otlari va payt otlari (birinchisi odatda abstrakt, ikkinchisi esa ham abstrakt, ham konkret bo‘ladi) alohida ajralib turadi. Bunday otlar sifatlovchi yoki qaratuvchi olib keladi, ana shu so‘zlarning semantikasiga bogliq holda ikki xil ma’noni ifodalaydi:

a) sof ko'plik ma'nosini ifodalaydi: *boshqa joylarga o'rnatiladi, bu joylarni obod qilish uchun, shunday joylarni, bu erlarning kelajagi haqida, kabi;*

b) chama-taxmin ma'nosini ifodalaydi, *Mustaqillik ostonalaridan, buloq bo'ylarida; dastlabki vaqtlarda, o'sha mahallar, yaqin kunlarda kabi.*

Misollar ko'rsatadiki, qaralmish bo'lib kelgan o'rin otidagi -lar chama-taxmin ifodalashi uchun qaratuvchi geografik ot (o'rin oti) bilan ifodalanishi lozim. Payt otlariga nisbatan bunday belgini ko'rsatish qiyin.

O'rin va payt otlarini istisno qilsak, qolgan abstrakt otlar «ko'p+har xil» ma'nosini ifodalaydi: *g'iybatlar tashishga, mardliklar talab qiluvchi, o'tmish sarqitlari; gumonlar, taxminlar tug'dirgan bo'lsa ham, yangiliklar vujudga kelishiga, cho'pchakda ham yo'q bu gaplar kabi.*

Aniq noyakka otlarda -lar affiksi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

a) yakka-qo'sh ma'no turida «ko'p+har biri» (donalarni ta'kidlovchi ko'plik) ma'nosini ifodalaydi: *ko'zlari miltillab, uning ko'zlari katta-katta, qora qoshlariga, quloqlarni qomatga keltirib kabi;*

b) yakka-ko'p ma'no turida sof ko'plikka yaqin ma'no ifodalanadi: *sochlari to'zg'ib ketgan bir qiz, silliqkina sochlari orasidan kabi;*

v) to'da otlari turida «ko'p+har xil» ma'nosini ifodalaydi: *O'rmonlardan yog'och kesib kelib kabi.*

Uyushib kelgan turdosh yutlarda -lar affiksi ikki xil ishlatiladi:

1) Uyushuvchilarning har biriga qo'shiladi va leksemaning semantikasiga bog'liq holda har xil ma'noni ifodalaydi:

a) sof ko'plik ma'nosini ifodalaydi: *...vayron bo'lgan yo'llarni, ko'priklarni tiklashardi (J.Abdullayev);*

b) «ko'p+har xil» ma'nosini ifodalaydi: *. . .majlisda aytilgan gaplar, ochilgan illatlar, o'rta tashlangan fikrlarga katta ahamiyat berib . . .*

Faqat birlik shaklidagi otlar. Otlarning faqat birlik shaklida qo'llanishi asosan donalab sanash mumkin bo'lmagan narsalarni ataydigan otlarga va umuman

ko‘plik bildirmaydigan otlarga xos xususiyatdir. Bular asosan U.Tursunov va boshqalarning qo‘llanmasida qo‘yidagicha berilgan.

Mavhum otlar ko‘plik affiksini olmaydi: *muhabbat, bolalik, dehqonchilik, rassomlik, yaqinlik, mardlik, vatanparvarlik, elektrlashtirish* kabi.

Sanalmaydigan, faqat o‘lchanadigan jism va narsalarni anglatadigan otlar, odatda, birlikda ishlatiladi: *tuz, yog‘, kerosin, asal, temir, neft, uzum, choy, bug‘doy, un* kabi.

Jism bildiruvchi otlarga *-lar* affiksi qo‘shilsa, aniq jismning ko‘pligini bildirmaydi, balki tur, mo‘llik ma’nolari anglashiladi: *mineral suvlar, choylar, tuzlar, uzumlar* kabi.

Organizmdagi juft a’zolari, shuningdek, juft narsalarni bildiruvchi otlar asosan birlikda ishlatiladi: *ko‘z, qosh, lab, barmog‘i, etik, kalish* kabi. Bu otlar *-lar* affiksi bilan qo‘llanganda, bo‘linadigan juftlikni bildiradi: *lablar* (yuqori va pastki), *ko‘zlar* (o‘ng va chap): *Bu ko‘zlarda turg‘unlik, olijanoblik, ko‘ngilning botiniy tozaligi, iliqligi jilvalanar edi. (O.)*

Asli o‘zi bittadan ortiq bo‘lmaydigan narsalarning nomi har vaqt birlikda ishlatiladi. Bunday otlarga *-lar* affiksi qo‘shilganda kuchaytirish, mubolag‘a, ta’kid ma’nolari ifodalanadi:

Yana dillarimda nash’alar o‘ynar. (U.) Mening boshlarimga tegib o‘tdilar. U ipak qo‘llari yaproqlaringning. O.)

Atoqli otlar, asosan, birlikda ishlatiladi. Ular umumlashtirish, birgalik kabi ma’nolarni bildirsa, *-lar* affiksini oladi: *Hamzaobodlarda, saunalarda yashnar, Sening orzularing, sening o‘ylaring. (A. Mux.) Tursunali akalar uyidagi ochiqlik, samimiylilik, bir-biriga bo‘lgan sodda munosabat uni o‘ziga tortib olgan edi. (A. Qahhor).*

Sh.Shahobiddinovaning “Son kategoriyasi tadqiqiga doir” maqolasida quyidagi fikrlarga to‘xtaladi.

(O) shakli miqdoriy ma'noning yo'qligini ko'rsatadi va shunga ko'ra «turkiy tillarda son kategoriyasi emas, balki ko'plik kategoriyasi haqida gapirish yaxshiroq diydi.

Son kategoriyasi boshqa morfologik kategoriyalarga nisbatan so'zning lug'aviy ma'nosi bilan ko'proq bog'langan. Kategoriya shakllarining qandayir so'z bilan bog'langanligi boshqa hech bir kategoriyada bu qadar ahamiyat kasb etmaydi.

Ba'zan son kategoriyasi tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda voqelikdagi narsalar miqdori va son kategoriyasi shakllari GMS ni tenglashtirishga intilish kuchli bo'ladi.

O'zbek umuman turkiy tilda jamlikni ifodalovchi maxsus shakl yo'qligi va shunga ko'ra bunday ma'noli otlarning ham (O) va (-lar) shakli bilan shakllana olishini ko'rsatadi. Miqdoriy belgidan tashqari sifatiy belgisini ham ko'rsatadi.⁹

Bundan tashqari **A. Nurmonov** va boshqalarning «O'zbek tilining nazariy grammatikasi» da son kategoriyaning birlik formasi haqida quyidagicha holatlarga to'xtaladi:

Birlik ifodalash odatda [O] shaklning asosiy vazifasi sifatida taqdim etilsa-da, aslida bu uning ko'p uchrovchi, «tipik» bo'lsa-da, faqat bitta imkoniyatidir. Shu tufayli [O] ga (umuman har qanday GSh ga) xos bo'lgan har bir XGMkabi bu ma'no ham ma'lum matniy qo'rshov talab etadi. Xususan, ko'rsatish olmoshlari, «bir» so'zi, aniqlovchilar bilan munosabatga kirishganda birlik ma'nosi yuzaga chiqadi: Ushbu yodgorlikka murojaat qilar ekanman, mening maqsadim bitta... (O. Matchon).

[O] shakl va [-lar] ning munosabatini an'anaga ko'ra tushuniladigan bo'lsa, taxminan quyidagicha ko'rsatish mumkin:

[O] <> [-lar]

Lekin ular orasidagi munosabat bir to'g'ri chiziqqa sig'adigan darajada sodda emas. [O] shaklning [-lar] ga qarama-qarshi qo'yilishi mutlaqo ularning

⁹ Шаҳобиддинова Ш. Сон категорияси тадқиқига доир // "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали. №6, 2005, 52-54-б.

yaqinlashadigan tomonlari ham borligini e'tibordan soqit qilolmaydi. Shuningdek, [O] shaklga xos bo'lgan ichki ziddiyatlarning ham bu munosabatlar sistemasida o'rni borligi shak-shubhasiz. Avvalo, bu ikki shaklning ziddiyatlari sistemasiga nazar tashlaylik.

Ma'lumki, bu shakllar miqdoriy va sifatiy belgilari bilan o'zaro farqlanadi.

Ko'rib o'tganimizdek, har ikki shakl ham jamlikni ifodalay oladi. Biroq ifodalangan jamlik tabiati farqli bo'lib, [O] shaklda yaxlitlik, butunlik ma'nosi kuchliroq bo'lsa, [-lar] da, aksincha, bo'linuvchanlik ottenkasi saqlanib qoladi. Chunki bu shaklga bo'linuvchanlik va bo'linmaslikni birday ifodalash xosdir. Ularning biri ro'yobga chiqqanda, ikkinchisi xiralashadi, ammo butunlay yo'qolib ketmaydi, qulay sharoit tug'ilishi bilan darhol yuzaga chiqadi. Masalan, qiyoslang:

1. *Odamlarning taomi ham turli-tuman, boy ...* (A.Oripov).

2. *Yopirilib kelardi odamlar, g'ujg'on...* (A.Oripov).

[-lar] shakli orqali birinchi misolda jamlik, umuman odamlar, kishilar ma'nosi, ikkinchi misolda esa chegaralangan, bo'linuvchan noaniq miqdoriy ko'plik ma'nosi ifodalangan.

Ammo birinchi misolda ham sharoit talabi bilan bo'linuvchanlik yuzaga chiqishi mumkin bo'lganidek, ikkinchi misoldagi so'zshakl ham bo'linmas sifat jamlikni ifodalay oladi.

Shunga ko'ra jamlik ma'nosi qat'iy bo'lishi lozim bo'lgan hollarda [-lar] emas, [O] qo'llaniladi:

Orzu bilan tirikdir odam. ... (Shuhrat).

Ko'plikni ifodalashda ham ikki shakl farqli xususiyatlarga ega. Bu avvalo sifatiy belgi ifodalashda ko'rinadi. Ya'ni ifodalanayotgan miqdoriy ko'plik [O] da bo'linmas, [-lar] da esa bo'linuvchandir. Miqdorni ifodalashda ham turlichalilikni ko'ramiz. [-lar] ga xos bo'lgan noaniq miqdorni ifodalash xususiyati ta'siri natijasida, hatto u bilan munosabatga kirishayotgan aniq sonlar ham aniqligini yo'qosa, [O] shakl esa noaniq miqdorni ham, aniq miqdorni ham birday ifodalash

xususiyatiga ko‘ra aniq miqdor bildiruvchilar bilan ham, noaniq miqdor bildiruvchilar bilan ham munosabatga kirishaveradi.

[O] shaklga xos bo‘lgan birlikni ifodalash xususiyati [-lar] da mavjud emas. Bu esa uning aniq miqdor anglatmaslik xususiyatidan kelib chiqadi.¹⁰

Yuqoridagilarni qisqacha qilib xulosalasak.

Narsaning miqdoriy belgisini ifodalash jihatidan son kategoriyasi shakllarining quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin:

[O] shakl aniq va noaniq miqdorni birday ifodalay oladi. [-lar] ifodalovchi miqdor esa hamma vaqt noaniqdir.

Narsaning sifatiy belgisini ifodalashga ko‘ra esa ularning ma’no nisbatlari quyidagicha:

[O] shakl miqdoriy belgi qandayligidan qat’iy nazar sifatiy jihatdan faqat bo‘linmaslikni ko‘rsatadi. [-lar] esa, aksincha, miqdoran noaniq narsaning ham bo‘linmas, ham bo‘linuvchan sifatini ifodalay oladi.

Miqdoriy va sifatiy belgilar nisbati [O] va [-lar] shakllari uchun quyidagicha:

Shakllar	Miqdoriy belgilar	Sifatiy belgilar
[O]	aniq/noaniq miqdor	bo‘linmas sifat
[-lar]	noaniq miqdor	bo‘linuvchan / bo‘linmas sifat

Bu belgilarga asoslanib, ular quyidagi ziddiyatlar qatorini tashkil etadi:

Belgilar	O	-lar
Noaniq miqdor	O	+

¹⁰ А.Нурмонов., Ш.Шаҳобиддинова., Ш.Искандарова., Д.Набиева. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология.- Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. 108-123-б..

Xulosa

O'zbek tilida grammatik ko'plikni ifodalovchi shakllar sof ko'plikdan tashqari, turli uslubiy ma'nolarni ham ifodalaydi. Jumladan, jamlikni, hurmatni, kamtarlikni, xil, tur va nav, umumlashtirish ma'nolarini belgili va belgisiz ravishda ifodalaydigan kategoriyadir. Umuman, otlarga xos son haqida keltirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- otning semantik jihatdan yakka yoki ko'p predmetni anglatishi boshqa hodisa-yu, son kategoriyasining qaysi formasida bo'lishi boshqa hodisa ekanligi ma'lum bo'ladi;

- otlarda son kategoriyasining grammatik ifodalanishi morfologik usuldan tashqari, leksik-sintaktik usul bilan ham ifodalanadi. Morfologik usulda ko'plik ma'nosi asosga *-lar* affiksini qo'shish bilan ifodalanadi: *Vodiyalar, mamlakatlar, binolar, yo'llar kabi*. Leksik-semantik usul bilan ifodalanishida sanoq sonlar, gumon olmoshlari va miqdor ravishi otni aniqlab keladi: *uchta kitob, bir nechta bola, ko'p bola, juda ko'p daftar, har xil kitob*. Bunda:

- a) otga sifatlovchi bo'lib kelgan ot, sifat, son takrorlanadi: *dasta-dastagul, to'da-to'da odam*;

- b) ba'zi hollarda ham morfologik, ham leksik-semantik usul birgalikda kelishi mumkin: *baland-baland tog'lar*.

Uzun-uzun she'rlar yodladim. (M.Yusuf.Saylanma,37-b.)

- «ko'plik» *[-lar]* shakli eng ko'p ifodalaydigan ma'no. Bunda *[-lar]* UGMsining kategorial ma'nosi «ko'plik» bo'lsa, unga dialektik yondosh bo'lgan ma'no – «miqdoriy noaniqlik» va «sifatliy bo'linuvchanlik». Ya'ni grammatik ma'no «bo'linuvchan noaniq ko'plik». Demak, «ko'plik» ma'nosi ifodalanganda, albatta, o'z-o'zidan «noaniqlik» va «bo'linuvchanlik» ma'nosi yuzaga chiqishi shart.

- *-lar qo'shimchasini oladigan va bu qo'shimchani olmaydigan* otlar mavjud. *-larni* olmaydigan ot faqat bir formada ishlatiladi, o'z semantik xususiyati asosida yakka predmetni anglatadi, shu sababli forma jihatdan ham birlikda deb yuritiladi.

Ko‘rinadiki, bunday otlarga birlik son formasigina (son kategoriyasi qismangina) xos, chunki zidlanadigan ikki formadan faqat bittasi mavjud. Bularga: Numerativ so‘zlar, organizmdagi juft a‘zolar, sanalmaydigan otlar, atoqli otlar (umumlashtirish va birgalik) ma‘nolarini ifodalasa -lar oladi. -lar oluvchi otlarda sof ko‘plik ma‘nosi ifodalanmaydi; -lar affiksining faqat bir ishlatilish holati - «bir qancha o‘xshash shaxs» ma‘nosi bilan qatnashuvini ko‘plik formasi deb atash mumkin (shunda ham ottenkali ko‘plik ifodalanadi). Qolgan holatlarda -lar affiksi ko‘plik ma‘nosini emas, ko‘plikdan tashqariga chiquvchi ma‘nolarni ifodalaydi.

- tilimizda ko‘plik qo‘shimchasi (-lar)ni noto‘g‘ri ishlatadigan holatlar ham uchraydi. Masalan, *20 ta mehmonlar kelishdi, 150 ta uylar qurildi*. Buning uchun biz tilimizdagi nutqiy g‘alizliklarni oldini olishimiz va adabiiy til me‘yorlarga rioya qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ilmiy adabiyotlar:

1. Махатова З. Сўзлар таркибида -лар қўшимчасининг ўринлашиши \\
”Ўзбек тили ва адабиёти” журналі. №1, 2006.
2. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек
тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Тошкент: Янги аср
авлоди, 2001.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova G., Yunusova Z.,
Abzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya
2009. - 414 b.
4. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий
тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
5. Шаҳобиддинова Ш. Сон категорияси тадқиқига доир \\
”Ўзбек тили ва адабиёти” журналі. №6, 2005.
6. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И.,
Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
7. Ўзбек тили грамматикаси. I том.- Тошкент: Фан, 1975.

Badiiy adabiyotlar:

1. Yusuf M. Saylanma: She'rlar, dostonlar, xotiralar.-Toshkent: Sharq, 2014.-
288 b.
2. Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar.- Toshkent: Sharq, 2013. -399 b.
3. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar.- Toshkent: Meriyus, 2011. - 255 b.